



MUQIMIYNING “OQJAR ODAMLARI HAQIDA MUHAMMAS” VA “BACHCHAG‘AR” ASARLARINING TAHLILI

Muhitdinova Muhlisa

Raupov Akbar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek demokratik adabiyotining XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab, ijod qilgan Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning adabiyotlaridagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlarini o‘rganishga qaratilgan. Aniqroq qilib aytganda, 1898-yilda bo‘lib o‘tgan Andijon qo‘zg‘oloni haqidagi katta radifli g‘azali va Oqjar paromi odamlari haqida yozgan muhammasning tahlilini ko‘rishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Oqjar, Dukchi Eshon, satira, radif, muhammas, davlat boshqaruv, adabiyot, to‘plam.

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining ko‘pgina sohalarida, xususan: ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy yo‘nalishlar, ma‘naviyat va ma‘rifat tarixini o‘rganishda ham davlatchiligimiz tarixida yangi izlanishlar olib borishga keng yo‘l ochildi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 18-aprelda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida Adiblar xiyoboni tashkil etish bo‘yicha qarori qabul qilindi va 2020-yil 2-may kuni Prezidentimizning tashrifi davomida Adiblar xiyoboni rasman ochildi. Hozirgi kunda Adiblar xiyobonida 24 ta adiblarimizning haykali o‘rnatilib, 24 ta oliy ta‘lim muassasi tomonidan adiblarning ijodi o‘rganiladi, targ‘ibot ishlari olib boriladi va adibning ijodi bo‘yicha turli xil loyihalar, uchrashuvlar o‘tkaziladi. Ushbu oliy ta‘lim muassasalari ichida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti esa Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning hayoti va ijodini o‘rganib, talaba-yoshlar uchun ham qiziqarli bo‘lgan tarbiyaviy tadbirlar



o'tkazishni, ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. 1850-yilda tavallud topgan buyuk adib Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning shoir va mutafakkirgina bo'lmasdan, tarixchi, iqtisodchi ham hisoblanadi. Shoirning hayot yillari boshqa yozuvchi va shoirlardan farq qilgan. Muqimiyning tafakkuri va intilishlari bilan muhit o'rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo'nalishni maydonga keltirib chiqargan. Muqimiy chor amaldorlarning yoki mahalliy ayrim boylarning kirdikorlariga befarq qara olmaganidan, ularning kirdikorlarini o'z satiralarida yoritib bergan. Bugungi kunda Muqimiyning hayoti va ijodini o'rganish, targ'ibot qilish, tahlil qilish o'zining shaxsiyatini yaratmoqchi bo'lganlarga, ayniqsa, iqtisodchi kadrlar o'rganishi ahamiyatga ega. Shoir 1876-yilda Qo'qonga qaytadi va kasb bilan shug'ullanmoqchi bo'ladi. Ammo, garchi o'z zamonasining eng katta ilmiy markazlardan biri hisoblangan Buxoroda oliy ma'lumot olgan bo'lsada, unga yaxshiroq ish taklif qilishmaydi va noilojlikdan yer qurilish mahkamasida mirza bo'lib ishlay boshlaydi. Uning vazifasiga mahalliy amaldorlar bilan qishloqlarga chiqish ham kiradi va aynan shu vaqtlarda u majburlangan va kamsitilgan aholini ko'radi. Bunday adolatsizliklarga chiday olmay, bu vazifadan ketadi va barchamizga yaxshigina mashhur bo'lgan "Tanobchilar" satirasini yozadi. Sarkotiblik (mirzalik) ishidan ketganidan so'ng, 1877-yillarda pattachi bo'lib ishlaydi. Albatta, bu vazifada ham u ijtimoiy va siyosiy muammolarga duchor bo'ladi. U faoliyat ko'rsatayotgan Oqjar paromi - Sirdaryo yoqasida joylashgandi, ya'nikim Qo'qonning g'arbi-shimolida. Oqjar odamlari unga o'zgacha taassurot qoldirgani uchun "Oqjar odamlari haqida muhammas" (turkiy tilda "Dar haqqi mardumi Oqjar ba tariqa muhammas) nomidagi satirani yozgan. Oqjarga kelgan pattachi shoir, aholisidan juda norozi bo'ladi, negakim bu insonlardan yordam yoki oddiy savol so'rasang ham qo'pol javob berishlari, yoki o'zlarining ishlari tushayotgan bo'lsada, qaysarlik qilib, beodoblik bilan iltimos qilishlari haqida to'xtalib o'tgan. Muqimiy oddiy bir ichimlik suvi uchun Oqjar aholisi suvini qizg'anganidan daryoga aylanib borishiga to'g'ri kelganini aytgan. Qolaversa,



pattachilik kasbi ham aslida juda katta sabr va kuch talab qilganligi uchun, shoir zerikkan vaqtlarida mahalliy aholi bilan suhbat qurishni, ularning yashash joylari haqida ma'lumotlarni so'rab, vaqtini foydali o'tkazishni yoqtirgan. Negakim, Muqimiy o'z asarlarida har bir yurtning ijtimoiy va iqtisodiy holatlarida to'xtalib o'tishni istagan. Ammo, Oqjar odamlari bilan dildan suhbat qurishni shoirimiz uddalay olmagan. Bu haqida quyidagi misralardan bilib olishingiz mumkin:

Kelganim ushbu makonga qiladur manga alam,

Loyiqi tabi yo 'q odamki desam hasratu g'am,

Gaplashurg'a kishi yo 'q ertadin, oqshomg'acha ham,

Kun sovuq, qora chiroq, go'rdek uyu, o'tun kam.

Qolaversa, muhammasni to'liq o'qib chiqqanimizda tushunishimiz ham mumkinki, Oqjar odamlari juda ham maqtanchoq, o'jar va lofchi bo'lishgan. Bu odatlarni esa Muqimiy doim o'z asarlarida qoralab kelgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, aholisi qaysarligi sabab, garchi ustlarida to'n'lari "juldur-juldur" bo'lsa ham, pattachiga kam pul berib, boshqa pulim yo'q deb turib olishgan ekan. Qolaversa, hiyla qilib yukni kemaga yashirishmoqchi va shu orqali boshqa qo'shimcha to'lovlardan qochmoqchi bo'lishgan.

"Na qilursan chaqamiz yo 'q, mana o'ldur-o'ldur

- shu misralar esa yaqqol misol bo'ladi. Ko'rib turganingizdek, "Tanobchilar" satirasiga o'xshab bu asarda ham ijtimoiy holatni aks ettira olgan. Shoirning madrasadagi ta'limni tugatib, Qo'qondagi ijtimoiy holatlarni ochib berishi tahsinga sazovordir. Aynan, Oqjar muhammasi to'g'ri tanlangan mavzu, masalasi esa hozirda ham bu illatlarning dolzarbligini ko'rishimiz mumkin. Kema sarkorlarlari bilan xalq o'rtasidagi munosabat, albatta, juda chiroyli va real yoritib berilgan. Shu davrning 70-yillarida Muqimiy olib borgan izlanishlari, yozgan asarlari uning



keyingi ijodi uchun poydevor bo‘la oldi. Masalan, “Tanobchilar”, “Oqjar odamlari haqidagi muhammas” yoki shu asarlardan keyin yozilgan “Qolishmas” asarini misol qila olamiz va siyosiy asarlaridan yana bir o‘sha vaqtlarda dolzarblikni boshlab bergan “Bachchag‘ar” asariga ham to‘xtalmay o‘tishning iloji yo‘qdir. Barchamizga ma‘lumki, 1898-yilda bo‘lib o‘tgan “Andijon qo‘zg‘oloni” ga Dukchi Eshon boshchilik qilgan va uning asosiy maqsadi bosqinchilarni xaydab chiqarish va musulmon davlatini qurish bo‘lgan. Ammo, bu harakatning oqibatida mahalliy aholi juda katta talofat ko‘rgan, yerlar vayron bo‘lgan, unga ishongan xalqning ishonchi so‘nib, Dukchi eshon g‘azab va la‘natlarga duchor bo‘lgan. Aynan shunday bir siyosiy tanglikda Muqimiy birinchilardan bo‘lib xalqning qo‘zg‘olondan keyingi ahvolini irodalab satira yozgan. Muqimiyning yana bir katta satiralaridan biri “Bachchag‘ar” shu sabablarga ko‘ra vujudga kelgan. Muqimiy shunchalik mahorat bilan Dukchi eshonning xiyla-nayranglarini, xalqning dardini va ko‘rgan barcha talofatlarini yoritib bera oldiki, Muqimiydang so‘ng shu zamonning ko‘plab shoirlari ham satira yozishni boshlashdi. Shunday shoirlar qatoriga kirgan Zavqiyning satirasidan quyidagi to‘rt misrani ko‘rishingiz mumkin.

Ishni san qilding balog‘a qoldilar bechora xalq

G‘o‘zani san yeb kesildi bo‘zchi yengi yo eshon.

So‘z yakunida aytadigan bo‘lsam, Muqimiy o‘z asarlari ortidan bizga mustamlakachilik davrining ahvoli, qiyinchiliklari, ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarini va insonning fazilatlarini, vatanni sevishni yoritib olgan. Yurt ravnaq topish yo‘lida adabiyotning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Muqimiyning hayoti va ijodi doim insonlar uchun vatanparvalik na‘munasi bo‘lib qolaveradi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, Muqimiy o‘z asarlarida o‘zi yashab o‘tgan davrning ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida ma‘lumot bera olgan va o‘z davrida adolatparvarlardan biri bo‘lgan, jamiyatdagi turli illatlarni har doim tanqid qilib kelgan. U uchun o‘zining yaxshi yashashi emas, balki jamiyat farovonligi birinchi o‘rinda turgan. U xalq qadriyat va ana’analarini



hurmat qilgan va o‘z davrida oddiy inson bo‘lib, xalq orasida katta hurmatga ega bo‘lgan shaxslardan biri bo‘lgan. Uning hayot yo‘li insonlar uchun o‘rnak sifatida qarash mumkin. Chunki u har doim adolat tarifida bo‘lgan va jamiyat rivojlanishiga hissa qo‘shishga harakat qilib yashagan.

*Podshoh yo‘qlatsalar nogoh gado deb axtaring,
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro deb axtaring.
Falak tiyri jafo har kimga otsa,
Meni aylar, «O‘shal-shul!» deb nishonlar.
Hasbi hol aylab qilibdur, xat so‘rab holing, Muqim,
To qiyomat Furqatiydin emdi minnatdorman.*

Shundan kelib chiqqan holda Muqimiyning hayotini va asarlarini nafaqat O‘zbekistonda balkim butun dunyoda keng jamoatchilikka yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa yoshlar tarbiyasida Muqimiy tamoyillargi tayanish orqali yaxshi natijaga erishish mumkin. Bizgacha yetib kelgan ko‘plab she‘riy va nasriy maktublar tariximiz va o‘zligimizni anglash uchun nafaqat bebaho hujjat, balki shoirlarimizning dunyoqarashini, ularning davridagi adabiy hayotini o‘rganishda ham boy ma’lumot manbai hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov G‘. Muqimiy ijodiy merosining manbalari. Muqimiy. Asarlar to‘plami. – T.: 1960, II tom, 169-bet.
2. Karimov G‘. Muqimiy. Tanlangan asarlar – 1-jild, 51-bet
3. M. M.S. The role of writers and poets in the study of Muqimi's work and their views on Muqimi. In e-conference globe (pp. 170-172).
4. M. M. S.(2021). Peculiarities of muqimi's work and its significance. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(3), 75-77.
5. G‘ofur G‘ulom, “Tanlangan asarlar”. Toshkent-1953.



6. Karimov F., Mukimiy. Hayoti va ijodi, t., 1970
7. Muxlisa Satriiddinovna Muhitdinova, Muqimiy ijodiga bir nazar, pedagogs jurnali, ,
retrieved from <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/2023>
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/05/20/alley/>
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Andijon_qo%CA%BBzg%CA%BBoloni